

GLOBAL IJTIMOY MEDIADA DOPINGGA QARSHI KURASHISH MAVZUSINI  
YORITILISHI**Omonov Humoyun Rustamovich**O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti magistranti<https://doi.org/10.5281/zenodo.15592912>

**Annotatsiya.** Ayni paytda, global media muhit va ijtimoiy tarmoqlar orqali doping bilan bog'liq ma'lumotlar juda tez tarqalmoqda. Bu axborotlar nafaqat jamoatchilikning fikrini shakllantiradi, balki dopingga nisbatan munosabatni ham o'zgartirishi mumkin.

Ushbu maqolada — dopingga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy medianing roli qanday namoyon bo'layotganini o'rganish, shuningdek, xorijiy tajribalar bilan qiyosiy tahlil asosida dopingga qarshi kurashda media vositalarining samarali foydalanilishi yo'llarini belgilash maqsad qilingan.

**Аннотация.** В настоящее время информация, связанная с допингом, стремительно распространяется через глобальные медиа и социальные сети. Эти сведения не только формируют общественное мнение, но и способны изменить отношение к самому явлению допинга.

В данной статье рассматривается роль средств массовой информации и социальных медиа в борьбе с допингом, а также проводится сравнительный анализ с зарубежным опытом с целью определения эффективных подходов к использованию медиа в антинаркотической деятельности.

**Abstract.** At present, information related to doping is rapidly spreading through global media and social networks. This information not only shapes public opinion but can also influence attitudes toward doping.

This article explores the role of mass media and social media in the fight against doping, and, through comparative analysis with international practices, aims to identify effective ways to utilize media tools in anti-doping efforts.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy media, doping, sport, axborot, kurash, targ'ibot.

Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 30-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida – “Sog'lom avlod — mustahkam kelajak kafolati. Sport va jismoniy tarbiya yoshlarimizni nafaqat jismonan, balki ma'naviy barkamol etib tarbiyalaydi. Doping kabi illatlarga qarshi murosasiz kurashishimiz shart”, - deb alohida ta'kidlab o'tgandi<sup>1</sup>.

So'nggi yillarda xalqaro sport maydonlarida doping vositalarining qo'llanilishi global muammo sifatida tan olinmoqda. Sportda adolat, sog'lom raqobat va halollik tamoyillariga rahna soluvchi bu illat nafaqat sportchilarning sog'lig'iga, balki jamiyatda sportga bo'lgan ishonchga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu illatga qarshi kurashishda axborot texnologiyalari, xususan, global ijtimoiy media vositalarining ta'siri kuchaymoqda.

Ilmiy va tibbiy nuqtai nazardan qaranganda, doping vositalari inson organizmiga kuchli ta'sir ko'rsatib, sog'liq uchun katta xavf tug'diradi. Gormonal buzilishlar, ichki a'zolar faoliyatining izdan chiqishi, ruhiy muvozanatning yo'qolishi kabi jiddiy asoratlar bu vositalardan uzoq muddat davomida foydalanishning oqibatlaridir. Bu esa nafaqat sportchilarning sport faoliyatiga, balki umumiy hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda ijtimoiy media vositalari – Facebook, Instagram, Telegram, X (Twitter)

<sup>1</sup> SH.Mirziyoyevning 2022-yil 30-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi.

kabi tarmoqlar – axborot tarqatish, ijtimoiy ongni shakllantirish va ommaviy muhokamalar uchun kuchli platformaga aylangan<sup>2</sup>. O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda faol siyosat yuritib, keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda<sup>3</sup>. Ushbu maqolada aynan global ijtimoiy media orqali olib borilayotgan antidoping targ‘ibot ishlari tahlil qilinadi va ular O‘zbekiston tajribasi misolida baholanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda dopingga qarshi kurashish mavzusi tobora dolzarblik kasb etmoqda. OAVga nisbatan ijtimoiy media tezkorlik, interaktivlik va shaxsiy yondashuv bilan ajralib turadi. O‘zbekistonda telegram va facebook orqali doimiy ravishda e‘lon qilinayotgan ogohlantiruvlar, videoroliklar va tushuntiruvchi materiallar orqali jamoatchilik xabardorligi oshmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Avstraliyalik sotsiolog David Rowe – “Sport, Culture and the Media: The Unruly Trinity” nomli kitobida sportdagi axloqiy masalalar, xususan doping holatlarini yoritishda OAVning mas‘uliyati va roli haqida so‘z yuritadi. Muallif media manipulyatsiyasi va sensatsion yondashuvlar sportchilar imijiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini chuqur tahlil qiladi<sup>4</sup>.

Boshqa bir muallif Brett Hutchins – “Digital Media Sport: Technology, Power and Culture in the Network Society” nomli asarida raqamli texnologiyalar sport ijtimoiy tarmog‘ini global miqyosda qanday shakllantirayotgani, ijtimoiy media orqali sportdagi ijtimoiy kompaniyalar qanday olib borilayotganiga to‘xtaladi. Xususan, doping holatlari bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlarda tezkor xabarlar tarqalishi jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ta‘kidlanadi<sup>5</sup>.

Ijtimoiy media imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali nafaqat axborot tarqatish, balki sportchilarda ongli yondashuvni shakllantirish mumkinligi ayon bo‘ldi. Biroq, ayrim holatlarda noto‘g‘ri yoki tasdiqlanmagan ma‘lumotlarning tarqalishi ham kuzatilmoqda. Shu bois, antidoping siyosatini yoritishda rasmiy manbalar, faktlar va ekspert fikrlariga tayangan holda ishlash zarur.

Shuningdek, xalqaro tajribalarga tayanib, mahalliy ijtimoiy tarmoqlar orqali ham yosh sportchilar va ularning ota-onalarini muntazam ravishda ma‘lumot bilan ta‘minlash lozim.

### **Ijtimoiy media vositalari orqali olib borilayotgan antidoping targ‘iboti bir necha jihatdan samarali ekani aniqlandi:**

1. Tezkorlik: rasmiy OAVga nisbatan tezroq axborot yetkaziladi.
2. Interaktivlik: foydalanuvchilar savollar berishi, izoh qoldirishi va fikr bildirish imkoniga ega.
3. Erkinlik va ixtiyoriylik: kontent majburan emas, ixtiyoriy ravishda iste‘mol qilinadi. Shunga qaramay, ayrim hollarda noto‘g‘ri yoki yolg‘on ma‘lumotlar tarqalishi mumkin.

Sportda sog‘lom raqobat muhitini ta‘minlash, giyohvandlik va doping vositalaridan foydalanishni qat‘iy cheklash orqali yoshlarning sog‘lig‘ini asrash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir<sup>6</sup>.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatdiki, dopingga qarshi kurashda media savodxonligi, raqamli madaniyat va ijtimoiy ong muhim omil hisoblanadi. Shu sabab, O‘zbekiston sharoitida

<sup>2</sup> АИПС. "Руководство по освещению антидопинга в СМИ". 2022.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Milliy antidoping agentligi rasmiy sayti: [www.uznada.uz](http://www.uznada.uz).

<sup>4</sup> David Rowe – “Sport, Culture and the Media: The Unruly Trinity” 2004.

<sup>5</sup> Brett Hutchins – “Digital Media Sport: Technology, Power and Culture in the Network Society” 2013.

<sup>6</sup> 30.10.2020-yildagi PF-6099-son.

ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni doimiy ravishda ma'lumot bilan ta'minlash, raqamli platformalarda mavzuga doir qiziqarli va interaktiv kontentlar yaratish muhimdir.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan Toshkentda bo'lib o'tgan "Global sport va yoshlik" forumi ochilishidagi nutqida ham "Sport – bu do'stlik, sog'lom turmush va halollik timsoli bo'lishi kerak. Biz sportda firibgarlik va dopingga qarshi birgalikda kurashishimiz kerak", - degan g'oya ilgari surilgan edi<sup>7</sup>.

#### **Xulosa va takliflar.**

- Multimediali kontentlar (video-podcast, animatsiya, infografika) orqali doping mavzusini ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar auditoriyasiga moslashtirib yetkazish;
- Sport jurnalistlari va blogerlar uchun maxsus treninglar o'tkazish – bu orqali axborotni faktlarga asoslanib, xolis va axloqiy mezonlarga mos tarzda yoritilishi ta'minlanadi;
- "ADEL" platformasida o'zbek tilida kontent hajmini oshirish va keng auditoriyani qamrab oluvchi milliy onlayn marafonlar tashkil etish<sup>8</sup>;
- Ijtimoiy tarmoqlarda influencerlar orqali ijobiy sport qadriyatlarini targ'ib qilish, dopingdan voz kechish bo'yicha shaxsiy motivatsion hikoyalarni kengroq yoritish;
- Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 27-apreldagi sport sohasidagi islohotlar bo'yicha aytgan so'zlariga tayangan holda, "Yoshlar sportda sog'lom hayot falsafasini qaror toptirishi kerak" degan g'oya asosida ta'limiy kampaniyalarni kengaytirish<sup>9</sup>.

#### **REFERENCES**

1. SH.Mirziyoyevning 2022-yil 30-dekabr kuni Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. АИПС. "Руководство по освещению антидопинга в СМИ". 2022.
3. O'zbekiston Milliy antidoping agentligi rasmiy sayti: [www.uznada.uz](http://www.uznada.uz).
4. David Rowe – "Sport, Culture and the Media: The Unruly Trinity" 2004.
5. Brett Hutchins – "Digital Media Sport: Technology, Power and Culture in the Network Society" 2013.
6. 30.10.2020-yildagi PF-6099-son.
7. SH.Mirziyoyevning 2023-yil Toshkentda bo'lib o'tgan "Global sport va yoshlik" forumi ochilishida aytilgan nutqidan.
8. WADAning antidoping ta'limoti bo'yicha yaratgan platformasi (<https://adel.wada-ama.org/learn>).
9. Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 27-apreldagi nutqi.

<sup>7</sup> SH.Mirziyoyevning 2023-yil Toshkentda bo'lib o'tgan "Global sport va yoshlik" forumi ochilishida aytilgan nutqidan.

<sup>8</sup> WADAning antidoping ta'limoti bo'yicha yaratgan platformasi (<https://adel.wada-ama.org/learn>).

<sup>9</sup> Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 27-apreldagi nutqi.